



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 62-67 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA ULARNING GURUHLANISHI.



Sanaqulova Aziza Amirovna
O'zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotining globallashuv muammolari va ularning guruhlanishi bilan bir qatorda Ularning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari hamda ushbu jarayonlar bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Globallashuvning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatlarini kesimida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar yoritilib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'siri doirasi ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, jahon iqtisodiyoti, integratsiya, iqtisodiy muammolar, kambag'allik, ekologik muammolar.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы глобализации мировой экономики и их классификация, а также современные тенденции их развития и связанные с этими процессами вызовы. Рассматриваются ключевые проблемы, возникающие в экономической, социальной, политической и экологической сферах глобализации, раскрывается их взаимосвязь и масштаб воздействия на основе научного подхода. В статье также представлены предложения и рекомендации по преодолению данных проблем.

Ключевые слова: глобализация, мировая экономика, интеграция, экономические проблемы, бедность, экологические проблемы.

Abstract. This article analyzes the problems of globalization of the world economy and their classification, along with the modern development trends and challenges associated with these processes. The study examines the key issues arising within the economic, social, political, and environmental dimensions of globalization, and scientifically reveals their interconnection and scope of impact. The article also provides proposals and recommendations for addressing these problems.

Keywords: globalization, world economy, integration, economic problems, poverty, environmental issues.

Kirish

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotining globallashuvi dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, xalqaro savdo hajmining kengayishi hamda kapital, mehnat va axborot resurslarining erkin harakati bilan tavsiflanadi. Globallashuv jarayoni natijasida milliy iqtisodiyotlar o'zaro integratsiyalashib, yagona iqtisodiy makon shakllanishiga zamin yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, turli darajadagi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Globallashuvning ijobiy jihatlari sifatida texnologik taraqqiyotning tezlashuvi, investitsiya oqimlarining ortishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishini ko'rsatish mumkin. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda iqtisodiy nomutanosibliklarning kuchayishi, kambag'allik darajasining ayrim hududlarda saqlanib qolishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi hamda ijtimoiy tengsizlikning ortishi kabi salbiy oqibatlar ham kuzatilmoqda.

Shu sababli globallashuv jarayonining muammolarini chuqur tahlil qilish, ularni ilmiy asosda guruhlash hamda samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kun iqtisodiy tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Globallashuv jarayonlari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda eng ko'p o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda globallashuv tushunchasi turlicha talqin qilinsada, ko'pchilik olimlar uni xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi, tovar va xizmatlar almashinuvi kengayishi hamda kapital va mehnat resurslarining erkin harakati bilan bog'laydilar.

Xususan, J. Stiglitz globallashuvni iqtisodiy jarayon sifatida baholab, uning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'siri turlicha ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi bilan birga, noto'g'ri boshqarilganda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin¹. Shuningdek, D. Rodrik globallashuvning milliy siyosat bilan o'zaro ziddiyatli jihatlari o'rganib, davlatlar iqtisodiy ochiqlik va ichki barqarorlik o'rtasida muvozanatni saqlashi zarurligini asoslab beradi².

Boshqa tadqiqotlarda globallashuv jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida transmilliy kompaniyalar faoliyati, texnologik taraqqiyot va xalqaro savdo erkinlashuvi ko'rsatib o'tiladi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar – Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlarida globallashuvning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli alohida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy manbalarda globallashuvning salbiy oqibatlariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, T. Piketty tadqiqotlarida daromadlar tengsizligining ortishi, kambag'allik muammosi va ijtimoiy stratifikatsiyaning kuchayishi globallashuv bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatib berilgan. Ekologik yo'nalishdagi izlanishlarda esa globallashuv natijasida resurslardan ortiqcha foydalanish va atrof-muhitga bosim kuchaygani ta'kidlanadi³.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, globallashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning ijobiy natijalari bilan bir qatorda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli uni samarali boshqarish va barqaror rivojlanishga yo'naltirish masalalari hozirgi davr ilmiy tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiya

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash hamda statistik tahlil usullari qo'llanildi.

¹ Joseph E. Stiglitz (2002), *Globalization and Its Discontents*, W.W. Norton & Co., New York – London. –p. 7.

² Rodrik D. (1997). *Has Globalization Gone Too Far?* Washington, DC: Institute for International Economics. –p.4.

³ Patnaik (2014). *Capitalism, Inequality, and Globalization: Thomas Piketty's Capital in the Twenty-First Century*. –p.5.

Globalashuv jarayonlari va ularning muammolarini o'rganishda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari, jumladan, global indekslar va statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot davomida tizimli yondashuv asosida globalashuvning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Empirik ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarilib, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Globalashuv jarayoni zamonaviy jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalarning chuqurlashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon tovar va xizmatlar savdosining kengayishi, kapital va investitsiyalar harakatining erkinlashuvi, shuningdek, texnologiyalar va axborot oqimlarining tezlashuvi orqali namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globalashuv darajasi mamlakatlar kesimida bir xil emas. Rivojlangan davlatlar, ayniqsa G'arbiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari globalashuv indeksida yuqori o'rinlarni egallaydi. Buning asosiy sabablari sifatida ularning ochiq iqtisodiy siyosati, rivojlangan logistika infratuzilmasi, yuqori darajadagi savdo integratsiyasi hamda texnologik ustunligi ko'rsatib o'tiladi. Masalan, Niderlandiya kabi davlatlar yirik portlari va qulay geografik joylashuvi sababli xalqaro savdo va logistika markaziga aylangan bo'lib, bu holat ularning globalashuv darajasining yuqori bo'lishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar esa mamlakatning globalashuv jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanganini ko'rsatadi. Xususan, 1991–2000 yillarda iqtisodiy yopiq tizim, tashqi savdoning cheklanganligi va valyuta siyosatidagi qat'iy nazorat sababli globalashuv ko'rsatkichlari past darajada bo'lgan. 2000–2010 yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi, eksport-import operatsiyalarining oshishi natijasida globalashuv darajasi asta-sekin o'sdi. 2010–2016 yillarda esa iqtisodiy siyosatdagi ayrim cheklovlar tufayli bu jarayon nisbatan sekinlashgan. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, jumladan valyuta liberallashuvi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va tashqi savdoning erkinlashuvi mamlakatning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Statistik ma'lumotlar tahlili globalashuvning turli komponentlari o'rtasida ham muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, axborot globalashuvi ko'rsatkichi yuqori darajada bo'lib, bu raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi. Savdo va moliyaviy globalashuv ko'rsatkichlari esa nisbatan pastroq bo'lib, bu ayrim iqtisodiy va institutsional cheklovlar mavjudligi bilan bog'liq. Ijtimoiy va siyosiy globalashuv ko'rsatkichlari o'rtacha darajada shakllangan bo'lsa, madaniy globalashuv ko'rsatkichining pastligi milliy an'analar va madaniy o'ziga xoslikning saqlanib qolayotgani bilan izohlanadi.

Globalashuv jarayonining ijtimoiy jihatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yilliklarda global miqyosda qashshoqlik darajasi kamayish tendensiyasiga ega. Xususan, o'ta qashshoqlikda yashovchi aholi soni sezilarli darajada qisqargan. Biroq, bu jarayon

barcha hududlarda bir xil kechmayapti va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi hanuz yuqori bo'lib qolmoqda⁴.

Ushbu rasmda O'zbekiston Respublikasining yillar kesimida globallashuv reytingini ko'rishimiz mumkin. Birinchi bo'lib shuni sezish mumkinki, 1991-2000 yillar davomida SSSR parchalanishi, iqtisodiy yopiq tizim, tashqi savdo kamligi hamda valyuta va investitsiya cheklovlari sababli mamlakatda globallashuv ko'rsatkichlari juda past bo'lgan. Ikkinchi bo'lib 2000-2010 yillar davomida savdo asta-sekin oshib boshladi, tashqi aloqalar kengaydi hamda transport va eksport rivojlandi va natijada mamlakatning iqtisodiy holati yaxshilana boshladi. Keyingi 2010-2016 yillar mobaynida esa mamlakatning iqtisodiy yopiq siyosati davom etdi, kapital va valyuta nazorati yo'lga qo'yila boshlandi va global integratsiya cheklangan. 2017-2023 yillarda iqtisodiy islohotlar ya'ni valyuta liberallashuvi, chet el investitsiyasiga ochilish va savdo erkinlashuvi; global integratsiya ya'ni xalqaro savdo oshdi va investitsiya kirib keldi; texnologiya va internet rivoji ya'ni aloqa, axborot oqimi oshdi hamda bularning hammasi globallashuvni kuchaytirdi⁵.

1-jadval

Jahon mamlakatlarining globallashuv ko'rsatkichlari bo'yicha TOP 10 reytingi⁶.

Reyting	Davlatlar	Ko'rsatkich
1.	Nedrlandiya	88.9
2.	Svitsirland	88.69
3.	Belgiya	88.55
4.	UK	87.45
5.	Sviden	86.87
6.	Avstraliya	86.78
7.	Germaniya	86.40
8.	Denmark	85.34
9.	Fransiya	85.23
10.	Finlandiya	85.16

1-jadvalda jahon bo'yicha mamlakatlarning globallashuv reytingi bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan. Bunda asosan G'arbiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari ustunlik qiladi. Buning eng asosiy sabablaridan biri bu kuchli savdo aloqalari va ochiq iqtisodiyot hisobalanadi. Ya'ni bunda globallashuv ko'rsatkichlari eksport va import hajmiga ham juda bog'liq hisoblanadi. Niderlandiya esa o'z navbatida o'zining eng yirik portlari hamda boshqa savdolarni amalga oshiradigan mamlakatlar bilan geografik jihatdan yaqinligi tufayli Yevropaning logistika markazi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida globallashuv hamda iqtisodiy yuksalishga juda katta imkoniyat yaratib beradi.

⁴ <https://www.pii.com/microsites/globalization/what-is-globalization>

⁵ Globalization index. Data by Countries from 1970 to 2023

⁶ Globalization index. Data by Countries from 1970 to 2023

2-jadval.

Globallashuv reytingini hisoblashda inobatga olinadigan ko'rsatkichlar⁷.

Nomi	Yillar						
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Axborot globallashuvi	70,69	70,41	72,66	73,23	72,56	75,16	77,07
Savdo globallashuvi	43,87	55,74	58,59	50,13	51,80	56,15	56,49
Iqtisodiy globallashuv	43,32	53,12	54,34	49,92	51,10	54,65	55,08
Moliyaviy globallashuv	42,84	50,88	50,71	49,74	50,51	53,37	53,88
Ijtimoiy globallashuv	47,39	48,96	51,41	50,83	50,96	52,33	52,81
Umumiy indeks	46,75	50,08	51,33	49,98	50,58	51,98	52,27
Shaxslararo globallashuv	47,12	48,99	51,43	50,18	51,09	52,47	52,08
Siyosiy globallashuv	49,56	49,57	49,82	49,25	48,88	48,72	48,86
Madaniy globallashuv	23,04	23,28	23,49	23,34	24,53	21,83	18,32

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda globallashuv darajasi 2017–2023 yillarda izchil o'sish tendensiyasini ko'rsatib, umumiy indeks 46,75 dan 52,27 gacha oshgan. Ayniqsa, informatsion globallashuv (77,07) eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu mamlakatda axborot texnologiyalari va internet integratsiyasi tez rivojlanayotganini bildiradi. Shu bilan birga, madaniy globallashuv (23,04) nisbatan past darajada qolmoqda, bu esa global madaniy almashinuv jarayonlari hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotida turli muammolarni yuzaga keltiradi⁸. Ularni ilmiy tahlil qilish uchun guruhlash zarur. Guruhlash jarayonida muammolarni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik mezonlar asosida ajratish mumkin.

Globallashuvning ijtimoiy muammolari guruhiga kiruvchi qashshoqlik darajasiga keladigan bo'lsak, 1990-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda dunyo bo'yicha o'ta qashshoqlikda yashayotgan odamlar soni taxminan 2,3 milliarddan 831 milliongacha kamaydi.

Aholining necha foizi **kuniga 4.20 dollar (2021-yil xarid qobiliyati pariteti – PPP bo'yicha)** daromaddan kam bilan yashayotganini ko'rsatadi.

Oddiy qilib tushuntirsak:

- **\$4.20 a day** → bir kishi kuniga 4.20 dollardan kam pul bilan yashasa, u qashshoqlik chegarasidan past hisoblanadi
- **PPP (Purchasing Power Parity)** → turli davlatlardagi narxlar farqini hisobga olib, pulning haqiqiy qiymatini tenglashtiradi
- **Headcount ratio** → shunchaki **ulush (foiz)**, ya'ni qancha odam qashshoq

Poverty headcount ratio — bu ma'lum bir milliy yoki xalqaro qashshoqlik chegarasidan pastda yashayotgan aholining foizini bildiradi. U asosiy ehtiyojlarini qondira olmaydigan odamlar ulushini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich qashshoq aholi sonini jami aholiga bo'lish orqali hisoblanadi va qashshoqlikni kamaytirishni kuzatishda asosiy indikator hisoblanadi.

⁷ [Globalization Index | Uzbekistan. Data by year](#)

Poverty headcount ratio bo'yicha asosiy jihatlar:

Ta'rif va formula:

Bu ko'rsatkich (H) – daromadi yoki iste'moli belgilangan qashshoqlik chegarasidan (z) past bo'lgan aholining ulushi.

Formula:

$$H = (\text{qashshoq aholi soni}) / \text{jami aholi soni}$$

Ushbu formula bir mamlakatda qashshoq aholi sonining jami aholi soniga nisbati hisoblanadi.

Xulosa.

Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni, uning asosiy muammolari hamda ularning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik yo'nalishlar bo'yicha guruhlanishi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayoni bir tomondan xalqaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, savdo, investitsiya va axborot almashinuvini tezlashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan turli darajadagi nomutanosibliklar va global muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Xususan, iqtisodiy globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan bo'lsa-da, daromadlar tengsizligi va ayrim hududlarda kambag'allik darajasining saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Ijtimoiy globallashuv doirasida esa aholi turmush darajasi yaxshilanishi bilan birga, ijtimoiy tafovutlar ham kuchayib bormoqda. Ekologik muammolar, resurslardan ortiqcha foydalanish va atrof-muhit ifloslanishi globallashuvning salbiy oqibatlarini sifatida namoyon bo'lmoqda. Siyosiy va madaniy globallashuv esa davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirgan bo'lsa-da, milliy o'ziga xoslik va siyosiy qarama-qarshiliklar masalasini ham dolzarb qilib qo'yimoqda.

Shuningdek, tahlil natijalariga ko'ra, globallashuv darajasi mamlakatlar kesimida bir xil emasligi, rivojlangan davlatlar bu jarayondan ko'proq foyda olayotgani, rivojlanayotgan mamlakatlar esa nisbatan sekin integratsiyalashayotgani aniqlandi. O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar globallashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyasini kuchaytirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Joseph E. Stiglitz (2002), *Globalization and Its Discontents*, W.W. Norton & Co., New York – London
2. Rodrik D. (1997). *Has Globalization Gone Too Far?* Washington, DC: Institute for International Economics.
3. Patnaik (2014). *Capitalism, Inequality, and Globalization: Thomas Piketty's Capital in the Twenty-First Century*
4. <https://www.piie.com/microsites/globalization/what-is-globalization>
5. [Globalization index. Data by Countries from 1970 to 2023](#)
6. [Globalization Index | Uzbekistan. Data by year](#)
7. https://data360.worldbank.org/en/indicator/WB_WDI_SI_POV_LMIC

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

